O‘ZBEK SHEVALARINING O‘RGANILISH TARIXI: ANDIJON SHEVASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Satimboyeva Onorxon Anvarjon Qizi
“University of economics and pedagogy” NOTM
assistent o‘qituvchisi O‘Zdjtu mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15662311

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilining tadqiq etilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan davlat qonunlari, Prezident farmoyishlari haqidagi mulohazalar, shuningdek, o‘zbek shevalarining o‘rganilish tarixiga nazar tashlangan bo‘lib, unda shevalarning joylashuvi, ilk turlari haqida tilshunos olimlarning mulohazalari, qarashlari berib o‘tilgan.*
Kalit so‘zlar: *sheva, lahja, dialektal hudud, fonema, fonetik, leksik, grammatik tafovut.*

Abstract. *This article reviews state laws and presidential decrees that served as the basis for the study of the Uzbek language, as well as the history of the study of Uzbek dialects, and provides linguists' comments and views on the location of dialects and their early types.*
Keywords: *dialect, dialect, dialectal area, phoneme, phonetic, lexical, grammatical difference.*

Аннотация. *В статье рассматриваются государственные законы и указы президента, составляющие основу изучения узбекского языка, а также история изучения узбекских диалектов, излагаются мнения и взгляды лингвистов на локализацию диалектов и их первоначальные типы.*
Ключевые слова: *диалект, говор, диалектный ареал, фонема, фонетическое, лексическое, грамматическое различие.*

Shevalarni o‘rganish kechagi yoki bugungi dolzarb masala emas balki butun til yaralibtiki o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan eng qamrovli masala bo‘lgan. Bunga sabab til hamisha rivojlanishda ekanligi yoxud aholi etnogenezi o‘zgarib aholi joylashuvi urbanizatsiyalashish hisobiga o‘zgarib borayotganidadir balki. Shuningdek rivojlanish asnosida tillar aro o‘zaro ta’sir ham rivojlanib borayotgani, chet tillarini o‘rganish asnosida o‘z tilidagi ayrim unsurlarni o‘zga tilda nutq jarayonida qorishtirish asnosida shevaga xos xususiyatlar yangi va dolzarb tus olayotgani ham ushbu mavzuning dolzarbligini oshiradi. Bu dolzarblik davlat siyosati masalasiga qadar chiqqani fikrimizning yorqin dalili. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-sonli, 2019 yil 21 oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli, 2020 yil 20 oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084- sonli Farmonlarida davlat tilini har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda o‘zbek tilining qadimiy va boy sheva va dialektlarni chuqur o‘rganish, mintaqadagi boshqa tillarga o‘zaro hurmat e’tiborda bo‘lish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratilgan [4].

O‘zbek shevalarini tadqiq etgan I.I. Zarubin ularni to‘rt guruhga bo‘lgan, ular: 1.Xiva guruhi, 2.Farg‘ona guruhi, 3.Toshkent guruhi, 4.Samarqand -Buxoro guruhi. E.D. Polivanov shevalarni meditatsiya hamda gibridatsiya holatlarini kuzatib misollar bilan o‘rgangan holda o‘zbek shevalarini uch guruhga bo‘lib o‘rgangan. Ular: 1. Eronlashgan shevalar; 2. O‘quz lahjasi; 3. Qipchoq lahjasi. Ushbu sheva guruhlari o‘zaro tiplarga ham bo‘lingan. Professor G‘ozi Olim o‘zbek shevalarini uch lahjaga bo‘lib tadqiq etgan. Ular:1. o‘zbek -qipchoq lahjasi, 2. Turk-barlos lahjasi; 3. Xiva-Urganch lahjasi. Professor A.K. Borovkov esa o‘zi tahlil etgan ma’lumotlar asosida o‘zbek shevalarini katta ikki guruhga bo‘lgan: 1. “a” lovchi shevalar, 2. “o” lovchi shevalar. Keyinchalik Professor tarixiy -lingvistik unsurlarni ham tadqiq etgan holda shevalarni yana to‘rt guruhga bo‘lishni taklif etdi. Bular: 1. O‘rta o‘zbek dialekti; 2. Shayboniy-Tojik yoki “dj” lovchi shevalar; 3. Janubiy Xorazm dialekti; 4.Alohida guruh o‘zbek shevalari.

Bugungi kunga qadar tayanch bo‘lib xizmat qilayotgan g‘oya ya’ni shevalarning uch guruhga ya’ni : qarluq-chigil-uyg‘ur , qipchoq, o‘g’uz guruhlariga bo‘linishi esa professor V.V. Reshetov tasnifiga asoslanadi. Andijon shevasi esa Toshkent, Namangan, Farg‘ona va bir qator shahar shevalari bilan bir qatorda Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi guruhiga kiradi. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kiruvchi dialekt va shevalar ayrim individual xususiyatlarni saqlash va saqlamasligi holatiga ko‘ra ichki yana to‘rt guruhga bo‘linadi. Ular: 1. Farg‘ona guruh shevalari, 2. Toshkent guruh shevalari, 3. Qarshi guruh shevalari, 4. Shimoliy o‘zbek guruh shevalari, Farg‘ona guruh shevalariga: Andijon -Shaxrixon dialekti, Namangan dialekti, O‘sh-O‘zgan dialekti, Marg‘ilon-Qo‘qon dialekti.

XX asrning 50-90 - yillarida o‘zbek tilshunos olimlari ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Jumladan F. Abdullayev, F. SHermatov, B. Jo‘rayev, A. Aliyev, S. Rahimov o‘zbek shevalarini guruhlab o‘rgangan. F.Abdullayev Xorazm viloyati shevalarini guruhlab o‘rgangan, ya’ni ushbu shevani ikkita : o‘g‘uz va qipchoq lahjalari guruhlariga to‘g‘ri keltirdi. B.Jovrayev, A.SHermatov esa Qashqadaryo shevasini tadqiq etgan tilshunoslar hisoblanadi. Bunda ular Qashqadaryo shevalarini yuqori va quyi guruhlarga bo‘lib o‘rgangan hisoblanadi. A.Aliyev esa Namangan viloyat shevalarini tadqiq etgan. Shuningdek S.Rahimov Surhondaryo shevalarini o‘rgangan va ularni ikki ya’ni: 1. “j” lovchi hamda 2. “y” lovchi shevalarga bo‘lib tadqiq etgan tilshunosdir. Ayrim manbaalarda oraliq shevalar haqida ham fikrlar mavjud. T.Qudratov oraliq shevalarni tadqiq etgan olim hisoblanadi.

Inson yaralibtiki til u bilan doim rivojda va o‘sishda, bunda inson o‘z tilining mohiyati, kelib chiqishi haqida bilimga ega bo‘lmog‘i inson zimmasidagi qarz ham farz deb hisoblaymiz. Andijon shevasining naqadar salmoqli, jozibador ekanligiga misol ushbu diyorda tavallud topgan shoir-u fozillardir. Jumladan Zaxiriddin Muhammad Bobur, Cho‘lpon, Muhammad Yusuf kabi so‘z san’ati sohiblari fikrimizning isbotidir.

Areal lingvistika asosida ma’lum hududlarga bo’linishni yoqlamagan Diyora Jahongirova [3] Farg‘ona viloyati shevalarini o‘rganilishini areal lingvistika asosidagi Farg‘ona vodiysidagi dialektal zonalar Janubiy-sharqiy Farg‘ona dialektal zonasi (Andijon-O‘sh), Janubiy-g‘arbiy Farg‘ona dialektal zonasi (Marg‘ilon-Qo‘qon), Shimoliy Farg‘ona dialektal zonasi (Namangan) tarzida uchta katta guruhga ajratilganligi haqidagi qarashlarni

ayrim sabablarga ko‘ra noo‘rin deb hisoblaydi. Bunday hududlashtirish asosida ayrim hududlardagi bilingvizm hodisasi mavjud bo‘lgan hududlar o‘rganilmay chetda qolishi mumkinligini, jumladan Andijondagi Paxtaobod tumanidagi Tojikqishloq kabilarni misol qilib keltiradi. Bunda hududlar kesimida emas balki qirg‘iz dialketal zonasi, tojik dilalektal zonasi kabi hududlarga bo‘lish taklifini kiritadi. Lekin bu qarash bizning fikrimizcha ham o‘rinli chunki xalqlar aro aralashuv, yuqorida aytib o‘tganimizday urbanizatsiya hamda rivojlanish asosida ayrim hudulardagi aholi qatlamini o‘zgarishi natijasida bu yerdagi til qatlami ham o‘zgaradi. Shu sababdan tillarga asoslangan dialketal hududlar asosida ish olib borish alohida ahamiyatga ega. Bunda bu ma’lumotlarni ham yangilash imkoni mavjud bo‘ladi. Qirg‘iz-o‘zbek shevasi vakillari hududi har besh yilda yangilab borilishi taqozo etadi.

Andijon shevasi vakillari Farg‘ona vodiysining ko‘p millatli hudulari orasida ko‘p tillilik hodisalari bilan ajralib turadi. Andijon shevasi o‘z tarixida adabiyotga, tilga katta e’tibor qaratgan yuksak ma’naviyatli insonlar diyori hisoblangan. Andijon olimlar, shoirlar, bastakorlar, san’atkorlar, sportchilar yetishtirgan diyordir.

Andijon shevasi vakillarining nutqi adabiy o‘zbek tiliga juda yaqin ammo ushbu sheva vakillarining chet tilida so‘zlashuv jarayoniga ayrim to‘sqinchiliklar sezilishi mumkin. Bu borada turli qarashlar mavjud. Masalan Anarbayeva Marifatxon Murodiljonovna o‘zining “Andijon Turk-Barloslari Shevasining o‘ziga xos (Fonetik, Leksik Va Morfologik) Xususiyatlari “ maqolasida shunday fikrlarni berib o’tadi: “O‘zbek tilining Andijon turk-barloslari shevasida unli fonemalarning tilning gorizontal harakati bilan belgilanuvchi kontrast juftlari bor va shu sababli singarmonizm qonuniyati ma’lum darajada saqlangan. Bu shevada qo‘llaniladigan unli fonemalar miqdori o‘zbek adabiy tili alfavitidagi hamda Farg‘ona vodiysining Namangan, Marg‘ilon, Farg‘ona va Qo‘qon shahar shevalari va Toshkent, Samarqand, Buxoro shevalaridagi unlilar miqdoridan ko‘pdir. Bu holat adabiy til orfografiyasi bilan Andijon turk-barloslari shevasi o‘rtasida ziddiyat uncha sezilmaydi, balki orfografiyada yo‘q unli fonemalarni sheva vakillari o‘z talaffuzlari asosida o‘qib, matnni erkin tushunaveradilar. So‘z yuritilayotgan shevaning leksik qatlami adabiy tilning leksik qatlamidan keskin farq qiladigan darajada emas, mavjud fonetik, leksik, va grammatik tafovutlar esa nutq jarayonida fikr olishuviga mutlaqo ta’sir etmaydi. Aksincha, ularning bazilari adabiy tilni boyitishga xizmat qilishi tabiiydir “ [1].

Adijon shevasi tarixiy jihatdan Chig‘illarga borib taqaladi. Bu o‘sha davrlarda O‘zgand shahri Chig‘illarning poytaxti bo‘lgan va keyinroq Andijonga ko’chishi bilan bog‘liq voqealarga borib taqaladi. Andijon shevasi kelib chiqishi haqidagi shunday qarashlar mavjud:” XII asrlargacha O‘zgand chigillarning poytaxti bo‘lib kelgan, keyinchalik u Andijonga ko‘chadi va bunda turkiy-o‘zbek tili rivoj topadi, andijon shevasi yuzaga keladi va u O‘rta Osiyoda va undan tashqarida, ya’ni Xurosongacha tarqaladi. Alisher Navoiy va zamondoshlari ham o‘z asarlarini qariyb shu lahja asosida yozganlar.

Andijon shevasining tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi va bu sheva vakillarining asosiy qismi turkiy tillarda so‘zlashuvchilar bo‘lib, Andijon shevasi XV-XVI asrlarda butun O‘rta Osiyo hamda Movarounnahrdagi adabiy tilga tayanch til vazifasini bajargan. Bu borada ko‘plab sharqshunos olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar. Jumladan Professor A.Y. Yakubovskiy ta’kidlab o‘tganidek : “Mo‘gullar zamonida Farg‘onadagi talay shaharlar turk shaharlariga aylandi. Ulardan ba’zilari, masalan, Andijon turk madaniyati, ayniqsa turk tilining chinakam markaziga aylandi”[7]. Andijon Temuriylar davrida ham rivojlangan shaharlar qatorida edi. Farg‘ona vodiysining markazi sifatida tan olingan ushbu shahar

shevasi barcha hududlar uchun na’munadagi ustun shevaga aylandi. Bu borada akademik V.V.Bartold shunday ta’kidlaydi: “XV asr oxirida Andijon Farg‘onadagi shaharlarning ko‘plaridan turk tilining ustun turishi jihatidan farq qiladi” [5].

Andijon shevasi to‘g‘risida Boburnomada shunday fikrlar suriladi: “Eli turktur va shahar bozorisida turkiy tilni bilmas kishi yuqtur”[6]. Shuningdek Bobur Marg‘ilon hamda Axsi shaharlari vakillari sort tilida gaplashishini Andijon shahri vakillari esa turk tilida so‘zlashishini ta’kidlab o’tganlar. Mo‘g‘ullar davrida so‘g‘d tilida so‘zlashuvchi aholining aksariyati turk tilida so‘zlashishni boshladi. Bu davrda Andijon aholisining ko‘p qismi esa butunlay turk tilida suhbatlashishni boshladilar.

O‘rta Osiyo Rossiyaga qo‘shib olingandan so‘ng bu Shahar sobiq Turkiston davlatiga qo‘shib olindi. Shundan boshlab Rus madaniyatiga qiziqish boshlandi va sanoat rivojlandi,buning natijasida ruslashish va yevropalashish rivojlandi, buning ta’siri aholi so‘zlashishiga ham ta’sir qildi. Bobur asarlarining tili aynan Andijon shevasida yozilgandir. Shuningdek Navoiy yaratgan ijod namunalari ham turkiy tilning Andijon shevasi asos bo‘lgan variantlari hisoblanadi. Bobur va Navoiy ishlarini keyinchalik Furqat, Muqumiy, Zayqiy, Niyoziy kabi ilm ahli o‘z badiiy asarlarida davom ettirdi va bu borada Andijon shevasi hozirgi o‘zbek adabiy tili tashkillanishida katta ro‘l o‘ynadi. Andijon shahrida o‘zbeklardan tashqari uyg‘ur, tatar, rus, arman, tojik, yahudiy, qirg’iz, qozoq kabi millat vakillari yashaydi va ularning tillari o‘zaro diskurs jarayonida bir-biriga ta’sir qiladi va ko‘plab interferensiyalar paydo bo‘ladi. S. Ibrohimov “ O’zbek tilining Andijon shevasi ”kitobida :”Andijon shevasi Andijon shahridan tashqari ko’plab hududlada tarqalgan. Andijondagi Qipchoq-qoraqalpoq, Saroy, Nayman-turk tip shevalarida so’zlashuvchilardan boshqalar asosan Andijon shevasida gaplashadilar “-deb fikr yuritadi [2].

Hozirgi andijon shevasi “y” lovchi o‘zbek shevalarining alohida keng tarmog‘idir. Bu shevani o‘zbek tilining boshqa shahar shevalaridan farqlovchi bosh va muhim belgilari 9 unli fonemali ekanligi, x va h undoshlarining keskin farqlanishi, I-II shaxs kishilik olmoshlarining (men), (sen) tarzida aytilishi, uz olmoshining II shaxs ko‘plik va hurmatlash formasida o‘ziynar shaklida ishlatilishi, oxirida burun ng undoshi bo‘lgan fe’llarga -lar qo‘shimchasi qo‘shilganda -narga aylanib: keliynar, boriynar (ad. tilda kelinglar, boringlar) formasida kelishi, birinchi qismi -ib orqali yasalgan ravishdosh, ikkinchi qismi qo‘ymoq fe’lidan iborat bo‘lgan va ad. orf. deb qo‘y, olib qo‘y kabi qo‘shma fe’llar deppo‘y(di), oppo‘y-(di) tarzida talaffuz etilishi va shu kabilardir .” [1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anarbayeva Marifatxon Murodiljonovna. Andijon Turk-Barloslari Shevasining O‘Ziga Xos (Fonetik, Leksik Va Morfologik) Xususiyatlari. Miasto Przyszłości Kielce 2024 Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X.
2. Ibrohimov. S.O’zbek tilining Andijon shevasi 14-bet. “Fan” nashriyoti. Toshkent 1967.
3. Jahongirova (Mahmudova) Diyoraxon Bahodirjon qizi . Andijon viloyatidagi tojikqishloq shevsi bo‘yicha ayrim mulohazalar. Research focus | volume 2 | issue 5 | 2023 issn: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (5.708) | UIF (8.3),53-67 B, 57-b.
4. lex.uz.
5. Бартольд В.В., История материальной жизни Туркестана, – Л., 1917. 90-с
6. Бобирнома, – Т., 2008. 19-б.
7. Якубовский А.Ю, Ўзбек халкининг юзага келиши ҳақида, – Т.: ФАН, 1941. 10-б.